


50. Uch xonali sonlarni qo'shish

Yondosh mavzu:
quruvchilar va me'morlar


Xonalar bo'yicha amallar
yuzliklar, o'nliklar, birliklar



1, 2, 3, 4, 5, 6 sonlarini
doirachalar ichiga shunday qo'yib
chiqingki, natijada har bir tomon bo'ylab
sonlar yig'indisi 12 ga teng bo'lsin.



1. Maktabni ta'mirlash uchun dastlab 564 ta g'isht, kechga yaqin yana 225 ta g'isht olib kelindi. Shu kuni qancha g'isht keltirildi?



Rasmlardan foydalanib, g'ishtlarning umumiy miqdorini hisoblab chiqishning qulay usulini o'ylab ko'ring.

2. Shu usuldan foydalanib quyida keltirilgan yig'indini topping.



**Uch xonali sonlarni qo'shish xonalar bo'yicha
bajariladi: birliklar birliklarga, o'nliklar o'nliklarga,
yuzliklar yuzliklarga qo'shiladi.**



2	4	5
+	3	1
6	5	6
5	5	7

1	2	4
+	5	6
6	7	0
1	5	9

1	4	1
+	8	9
9	2	0
1	4	9

3. Sonlarni qo'shish amalini bajaring.

$$108 + 371$$

$$836 + 62$$

$$425 + 534$$

$$511 + 8$$

$$617 + 242$$

$$193 + 4$$



4. Qo'shish amalini bajaring:

$$\begin{aligned}3 \text{ yuzl. } 4 \text{ o'nl. } 1 \text{ birl. } + 5 \text{ yuzl. } 2 \text{ o'nl. } 0 \text{ birl.;} \\6 \text{ yuzl. } 0 \text{ o'nl. } 7 \text{ birl. } + 2 \text{ yuzl. } 5 \text{ o'nl. } 0 \text{ birl.;} \\8 \text{ yuzl. } 3 \text{ o'nl. } 5 \text{ birl. } + 1 \text{ yuzl. } 3 \text{ o'nl. } 2 \text{ birl.}\end{aligned}$$



5. Mahallada 32 ta ko'p qavatli va ulardan 112 ta qo'p bir qavatli uy qurildi. Bu mahallada jami nechta uy qurildi?






6. Yangi uyda 120 ta bir xonali, 125 ta ikki xonali va 112 ta uch xonali xonadonlar bor. Bu uyda jami nechta xonadon bor?



7. Perimetri 24 cm bo'lgan ABCD kvadrat chizing. AC va BD kesmalar o'tkazing. Chizmada qanday shakllarni ko'rish mumkin?



8. Uy ushbu rejalarning qaysi biri asosida qurilgan?



9. Qo'shish amalini bajaring.

$$152 + 315$$

$$602 + 147$$

$$783 + 115$$

$$560 + 220$$

$$308 + 210$$

$$557 + 442$$



10. Qurilish do'konida 150 turdag'i qog'ozli, 124 turdag'i vinilli va 212 turdag'i matoli devor gulqog'ozlari sotiladi. Do'konda jami necha turdag'i devor gulqog'ozlari bor?